



## AXBOROT XAVFSIZLIGI – JAMOAT XAVFSIZLIGINING MUHIM ASOSI

Yo‘ldashev Kudrat Abduvaxatovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada axborot xavfsizligi – jamoat xavfsizligining muhim asosi ekanligi yoritilgan. Axborot xurujidan ko‘zlangan asosiy maqsad - raqib davlat axborot maydonini egallab olishdir. Mamlakatimizda ushbu sohani tartibga solish va muvofiqlashtirib borish bo‘yicha bir qancha huquqiy asoslar yaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot xavfsizligi, xavfsizlik, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik, islohotlar.*

Axborotning jamiyat hayotidagi roli, uning o‘rni, shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotiga bo‘lgan ta’siri sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda axborot tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslardan ham ko‘proq qimmatga ega qudratli resursga aylandi. Axborotni tovar sifatida sotish va xarid qilish mumkin. Bundan tashqari, axborotdan quroq sifatida foydalanish mumkin, bugungi kun turli ko‘lam va jadallikdagi axborot urushlari bilan qamrab olingan. Yigirma birinchi asr - axborot asri, bugun kim axborotga ega bo‘lsa o‘sha dunyoga hukmronlik qiladi degan qoida ustuvor. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televide niye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaryoshlik san’atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Milliy g‘oya, mafkura, ma’naviyat tushunchalari, shu jumladan fuqarolarimizning vatanparvarligi axborot xurujlariga qarshi muhim omillardir. Bu yo‘nalishda amalga oshirayotgan ishlarimizni izchillik bilan davom ettirishimiz lozim. Axborot xurujidan ko‘zlangan asosiy maqsad - raqib davlat axborot maydonini egallab olish, xalqaro maydonda davlat imidjini tushurish, jamiyat hayotini beqarorlashtirish, shaxsni obrusizlantirishga qaratilgan axborotlarni tarqatishdir. Hozirgi kunda maqsadga erishish uchun asosiy vositalar sifatida OAV va axborot-komunikatsion texnologiyalardan foydalaniylmoqda. Bugun biror davlatda axborot xurujlarini amalga oshirish usullariga qarshi yagona bir kompleks tadbirlari ketma-ketligi ishlab chiqilmagan. Bunga sabab axborotkomunikatsion texnologiyalarining juda tez sur’atlarda rivojlanib borayotganligi, tezkorligi, turlichaligi, chegara bilmasligi, millat tanlamasligi, yashirinligidir.

Mamlakatimizda ushbu sohani tartibga solish va muvofiqlashtirib borish bo‘yicha bir qancha huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, 2022-yilning 15-aprelida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish davlat tizimini joriy



etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi kiberxavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatining yuritilishini samarali yo‘lga qo‘yilgan [1].

Shuningdek, 2023-yil 31-mayda PQ-167-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriqabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlikning ta‘minlanganlik darajasini kuzatib boradi, ularni baholash va monitoring qilish tartibini ishlab chiqadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi bilan birgalikda kiberxavfsizlikni qonunchilikda belgilangan tartibda ta‘minlash hamda rivojlantirish holati ustidan nazorat va monitoring olib borishda ishtirok etishi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, axborot xavfsizligi deganda axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanishi tushuniladi. Axborot xavfsizligi masalasi huquq va manfaatlari himoya qilinishi lozim bo‘lgan subyektlarga ham, bunday himoyani ta‘minlaydigan subyektlarga ham birday taalluqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasi mamlakat milliy xavfsizligini ta‘minlashning muhim qismidir. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga tahdid sifatida qaraladi:

- “fuqarolarning ma’naviy turmushiga, axborot sohasidagi konstitusion huquq va erkinliklariga, individual, jamoaviy, ijtimoiy ongga hamda O‘zbekistonning ma’naviy tiklanishiga tahdidlar”;
- “O‘zbekiston Respublikasining axborot ta‘minotiga oid davlat siyosatiga tahdidlar”;
- “respublika axborot sanoati, jumladan, axborotlashtirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari sanoatining rivojlanishi, ichki bozorning ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabining qondirilishi hamda ularning jahon bozoriga chiqishi, shuningdek, respublikada axborot resurslarining to‘planishi, saqlanishi va ulardan samarali foydalанишiga bo‘lgan tahdidlar” [2];
- O‘zbekiston Respublikasi hududida yaratilgan axborot-telekommunikatsiya vosita va tizimlarining xavfsizligiga tahdidlar [3].

Mamlakatning axborot xavfsizligini ta‘minlash va jamiyatimizda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasida qilingan keng ko‘limli chora-tadbirlar bilan birga oldimizda turgan muhim vazifalar ham bor.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid



davlat dasturida kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini yaratishda quyidagilar asosiy bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar sifatida belgilab qo‘yilgan:

*Birinchidan*, 2023–2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish. Bunda, “UZ” domen zonasi Internet-makonining kiberxavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlarini hamda elektron hukumat, energetika, raqamli iqtisodiyot tizimlarini va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo‘nalishlarni himoya qilish bo‘yicha kompleks vazifalarni belgilash;

*Ikkinchidan*, kiberjinoyatchilik uchun jinoiy javobgarlikni qayta ko‘rib chiqish;

*Uchinchidan*, Axborot maydonidagi kiberhujum va tahdidlarni monitoring qilish tizimini yanada takomillashtirish. Bunda kiberxavfsizlikning Yagona tarmog‘ining texnik infratuzilmasini kengaytirish, “Kibernetikada innovatsiyalar IT-parki” faoliyatini yanada jadallashtirish, IT-parkning hududlardagi raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari negizida yoshlarni kiberxavfsizlik asoslari bo‘yicha o‘qitilishini ta‘minlash, hamda har yili talaba va o‘quvchilar orasida kiberhujumlar aniqlash bo‘yicha respublika miqyosida konkurslar o‘tkazish nazarda tutiladi.

Xulosa qolib aytganda, Yangi O‘zbekistonda barcha sohalari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalar raqamlashtirishga o‘tayotgan bir davrda Internet-makonining axborot va kiberxavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlarini begilab beruvchi normativ va institusional asoslarni yaratish muhim sanaladi.

### **FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 15.04.2022 йилдаги ЎРҚ-764-сон Қонуни. // <https://lex.uz/uz/docs/5960604>
2. Yuldashev K. Axborot oqimlari sharoitida sivilizatsiyaviy tahdid masalasi // “Jamiyat va innovasiyalar” jurnali. 2023. № 5. -Б. 474-478
3. Yuldashev K. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning ayrim mexanizmlari. //“Konsensus” xalqaro jurnali. –Toshkent, 2023. № 1. –Б. 37-46